



G'AFUR G'ULOMNING HAYOTIDAN BIR PARCHA

To'xtayeva Aziza Dusmuratovna
Toshkent davlat yuridik universiteti
Jinoiy odil sudlov fakulteti 2-kurs talabasi

Annotatsiya: Mazkur maqola G'afur G'ulom hayotidan qisqacha bo'lgan ma'lumotlarni o'z ichiga olgan bo'lib, unda adabiyotga qadam qo'yishiga bo'lgan asosiy sababchilar keltirilgan. Shu bilan bir qatorda, G'afur G'ulomga bo'lgan hurmat-ehtiromning bir ko'rinishi ham yoritilgan.

*“G'afur G'ulom ijodiyoti zo'r gulxan,
uning har qanday ko'rinishi xilma-xil yonish,
ya'ni nur va harorat demakdir. G'afur G'ulom poeziyasining chuqur kuchi,
jozibasi, ko'zni qamashtirib yuboradigan go'zalligi shundadir”.*

Abdulla Qahhor

XX asr jahon adabiyoti ko'pdan ko'p buyuk yozuvchilarni, shoirlarni in'om etdi. Shu rang-barang va boy adabiyot bo'stonida o'zbek shoiri G'afur G'ulomning o'z o'rni, qiyofasi hamda ovozi borki, uni hech kimga o'xshatib bo'lmaydi.

Manbalarga ko'ra, G'afur G'ulom 1903-yilda Toshkent shahrining Shayxontohur dahasida dunyoga kelgan. G'afur G'ulomning otasi savodli bo'lib, 1908-yilgacha shahar dumaxonasining mahalliy bo'limida mirzalik qilgan G'afur G'ulom “Kechmish va kechirmishlarim” sarlavhali tarjimai holida shunday yozadi, “Otam durustgina savodli, o'zbekcha, tojikchani yaxshi bilar va uncha-muncha ruscha so'zlashardi. Mirzo hamda G'ulom taxalluslari bilan she'rlar yozardi. Uyimizga toshkentlik shoir va xattotlardan Shomurod kotib, Farg'ona vodiysidan Muqumiy, Toshxo'ja Asiriy, Furqat, Muhiy kabi ko'p shoirlar kelganini aytardilar”. G'afur G'ulomning onasi fors tojik tillardagi kitoblarni ham o'qiy oladigan, sharq she'riyati ixlosmandi bo'lgan.

Benazir iste'dod sohibi G'afur G'ulom sharq adabiyotining yetuk vakillari bo'lgan Navoiy, Fuzuliy, Ganjaviy, Nizomiy, Lutfiy, Mashrab, Bedil, Muqumiy, Furqat kabilarni o'ziga ma'naviy ustoz deb bilgan. Ulardan ilhom olgan va ular haqida imliy maqolalar yozib turgan. Sharq falsafasi ma'daniyati, tarixini chuqur bilgan G'afur G'ulom mumtoz adabiyot an'analarini davom ettirdi. O'zbek adabiyotining yangi bosqichga ko'tarilishiga katta hissa qo'shdi. U o'zbek adabiyotini she'riy asarlar bilan qay darajada boyitgan bo'lsa, nasriy asarlar bilan undan kam bo'lmagan miqyosda yuksaltirgan yozuvchidir. G'afur G'ulom o'zbek mumtoz adabiyotini yaxshi bilganligi uchun o'sha davr ensklopediyasi bo'lgan desak ham mubolag'a bo'lmaydi.

O'zbek she'riyati va nasrining yirik betakror vakili, hozirgi zamon o'zbek adabiyoti hamda ma'daniyati rivojiga munosib hissa qo'shgan so'z san'atkoriga chuqur hurmat ko'rsatishning bir qancha takrorlanmas turlari mavjud. Bunga misol sifatida, G'afur G'ulom yashagan xonadonda uy-muzeyining tashkil etilishi uning muxlislari umuman adabiyot



ixlosmandlari uchun benazir tuhfa bo'ldi. Ushbu muzey 1983-yilda shoir tavalluding sakson yilligi munosabati bilan o'z faoliyatini boshladi. Ayni paytda mazkur mo'jaz muzey ma'naviyat va ezgulik maskani sifatida faoliyat yurityabdi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. <https://arboblar.uz/uz/people/gafur-gulyam>
2. <https://tafakkur.net/gafur-gulom.haqida>